

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MAKTABDAGI TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMI, SINF RAHBARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODLARI

Maqsudova Yodgora Maqsud qizi, Ustayeva Kamola Otabek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, tarbiyaviy ishlar, pedagogik texnika, pedagogik takt, mimika, pantomimika, diksiya, pedagogik odob, pedagogik nazokat, o'qituvchi maqomi.

Annotasiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarlarining o'quvchilar bilan ishlash metodlari, innovatsion usullar orqali yoritilgan. Unda sinf rahbarining o'quvchilari oldidagi burch va vazifalari tarmoqlab ko'rsatilgan. O'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikda o'quvchilarni tarbiyaviy ishlarini olib borishlari nazarda tutilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir. Chunki tarbiyachilik talanti juda ko'p sifatlarni chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jondildan ko'ngil qo'yish bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, temperament, aql va odoblilik namunasi, aloqada nazokat va sipolik, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatlarining bo'lishini taqozo qiladi. Bunda yana tarbiyachilik texnikasi qo'shilsa ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Sinf rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir o'quvchi shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmastik tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondoshish talab qilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining o'zi bolalarda tarbiyalamoqchi bo'lga g'oyaviy-axloqiy g'oyaga mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pligiga asosiy sabab o'quvchilarning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi harakterda hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir. Sinf rahbarining maxsus kasbiy va ijtimoiy vazifalariga odilona baho beruvchi xolis hakam – tarbiyalanuvchilar. Avvalo, sinf rahbarining amaliy faoliyati faqat yarimi tarbiya texnologiyaga asoslanganligini nazarda tutish kerak. Uning ikkinchi yarimi bu san'at. SHu tufayli sinf rahbariga qo'yiladigan dastlabki talab – unda pedagogik qobiliyat mavjud bo'lishi kerak. Sinf rahbarining qobiliyati– bu o'quvchilar bilan ishlashga ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo'lgan munosabatdan mamnun bo'lish bilan ifoda bo'ladigan shaxsning sifatlari. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa. Qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn SHu nuqtai nazardan sinf rahbarining ma'suliyati jamiyat oldida rahbarlik ma'suliyatidan kam emas. SHunnig uchun maktab direktorlari sinf rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mehnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o'qituvchilarni tayinlab ular bilan muntazam ish olib boradilar. Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri – bu o'quvchining o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobiliyatini rivojlantirish, kab-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish sinf rahbarining bevosita asosiy vazifasidir. Sinf jamoasini tashkil etish va

tarbiyalash jarayonida sinf rahbarining tashkilotchilik funktsiyasi juda katta ahamiyatga egadir. "Tashkilotchilik" tushunchasining o'zi keng maxnoga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni, tadbiriyl choralarini tashkil etish sinf rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi. Tashkilotchilik funktsiyasi bir nechta elementlarga bog'liqdir.

- a) O'tgan ishlarni tahlil qilish uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.
- b) Sinfda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviyl harakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va sinf rahbari turli tarbiyaviyl ishlarni o'tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.
- c) Sinf rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.
- d) Sinf rahbari har bir tarbiyaviyl choralarini amalga oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviyl tadbirlarning o'tkazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimlilikini aniqlash lozim.
- e) Ma'lum tarbiyaviyl ish bajarishda bajaruvchi kishilarni ish uchastkalaridagi joy-joyiga qo'yish, vazifalarni to'g'ri taqsimlash, ishga boshqa o'qituvchilarni, otaonalar, o'quvchilar, otalik tashkilotlari va ish obxektini aniqlash lozim. Sinf rahbarining jamoani tashkil qilish bo'yicha asosiy faoliyati.
 1. Har bir o'quvchini shaxs sifatida o'rganish.
 2. O'quvchilarni sinfda tarbiyalashni tashkil etish.
 3. O'quvchilarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.
 4. Sinfda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.
 5. Fan o'qituvchilarining tarbiyaviyl ishlarini birlashtirish.

Sinf rahbari fan o'qituv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. SHuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar ko'yilgan, bu talablar tarbiyaviyl ishlarni yukori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi. Sinf rahbariga nisbatan qo'yiladigan talablar: yuqori g'oyaviylilik va onglilik; sinf rahbari katta obro'ga, ehtiromga va hurmatga ega bo'lishi; pedagogik mahorat; madaniyl qobiliyatining mavjudligi; pedagogik odobga ega bo'lish; yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtiromli bo'lish; tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bo'lish; tarbiyaviyl ishlarga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish; sinf rahbari kasbini yuqori ko'tarish va mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Rasmiyl hujjatlarga sinf rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham biz kuyida sinf rahbarining jamoani birlashtirish bo'yicha vazifalarni aniq tarzda ko'rsatishni zarur deb bildik. Sinf rahbarinig vazifalari:

1. O'quvchilarning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganish;
2. O'quvchilarning kundalik davomati, odob xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish;
3. O'quvchilarning rejiga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish;
4. Sinfda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlislar o'tkazish;
5. Darsda o'quvchilar davomatini ta'minlash, sinfdagi va yuquv yurtida navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, honadagi o'quv asboblarini saqlashga o'rgatish, o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish;
6. Sinf majlislarini tizimli o'tkazish;
7. "Kamolot" tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarni tashkil etish;

8. O'quvchilar bilan darsdan tashqari o'qishlari va anjumanlarini o'tkazish;
9. Sinf o'quvchilari bilan sport , harbiy vatanparvarlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko'rish, o'quvchilar sog'ligini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish;
10. O'quvchilarni rag'batlantirish va zarur vaktlarda ularga nisbatan chor ko'rish;
11. O'quvchilarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatlar o'tkazish;
12. O'quvchilarning shaxsiy va sinf rahbariga oid hujjatlarini tartibli olib borish.

Sinfda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida sinf rahbari o'quvchilarining ta'lim olishlari, sinfni uyushtirishining ta'miniy rejasini tuzadiki, bu reja o'quvchilar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Hozirgi davrda maktab, akademik litsey, kollej va undagi o'quv- tarbiya jarayoni jamoa oldiga juda katta ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalar qo'ymoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirishi, goyaviy va siyosiy jixatdan chiniktirishi, yuksak axlokiy fazilatga ega kilishi , mexnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Sinf rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya kilish, har bir o'quvchi shaxsini inson sifatida xurmat kilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bulish, uz malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondoshish talab kilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining uz bolalarda tarbiyalamokchi bulgan goyaviyaxlokiy goyaga mos bulishi kerak. Tarbiyadagi oldiga kuyilayotgan talablar tarbiyachi harakterda xamisha xam namoyon bulavermasligidadir. Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida xamisha namuna kursatishi muhim axamiyatga ega. Ayni vaktida u kommunikativ (kattalar bilan xam, kichiklar bilan xam tez aloka urata olish obiliyatiga ega bulishi, ruy berayotgan xodisalarni fakat pedvgogik koidalarga boglab baxolashgina emas, balki ruy berish sababiga karab xukm xam chikarishi pedagogik optimizmga, ijod kilish kobiliyatiga ega bulishi kerak. Sinf rahbarining ta'lim muassasasining bajaradigan mexnatning ulchovi, chegarasi yuk. Uning bilmagan ishi, uddasidan chika olmaydigan soxasi bulmaydi. Shu bilan bir katorda u begaraz, xolis va ta'masiz shaxs bulib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar va ukuvchilarni uzaro boglovi shaxs sifatida barcha tomonlarning nukai nazarini xisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, uzaro alokalarning tugri bulishiga ta'sir utkazishi va ayni vaktida uzining pozitsiyasini anik ta'minlay olishi kerak. Bu esa donolikdir. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffakiyatini ta'minlashga garov buladi. Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi, o'quvchilar hayotining nima bilan band qilish va tanlangan ish turini amalga oshiroishini bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni uechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Sinf rahbarining ish stolida «O'quvchilarni tarbiyalash ishining mazmuni» bo'lishi kerak. Chunonchi,

- Dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish;
- Siyosiy onglilikni tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish,
- Axloqli, ongli intizomni va xulq madaniyatini tarbiyalash;
- O'Qishga ongli munosabatni tarbiyalash, bilish faolligini va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabatni tarbiyalash, politexnika bilim. doirasini kengaytirish, kasbni ongli tanlashga tayyorlash;
- o'z huquqini anglab yetishga o'rgatish, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash;
- estetik madaniyat asoslarini tarbiyalash va badiiy qobiliyatni rivojlantirish;
- jismoniy barkamollik, salomatlikni, mustahkamlash va sanitariya-gigiyona madaniyati kabi

muhim masalalar alohida qayd etiladi Sinf rahbarining pedagogik faoliyati va ma horati o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedgogik malakalar majmuidan tashkil topadi. Xo'sh, tarbiyachining pedagogik mahorati, texnikasi qanday malakalarni o'z ichiga oladi? Ularning pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi roli qanday? Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z fikr va his tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin. Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi sinf rahbarining mimik va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo – ishora, maxnoli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedgogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda sinf rahbarining o'z hissiy holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z – o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi. Samarali o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil tish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql – idorkigagina emas, balki ularning his tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatishga yordamlashadi. SHunday qilib, sinf rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u sinf rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ulaga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. A.S.Makarenko shularni nazarda tutib, «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin», deb yozgan edi. Pedagogik texnikaninegallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiynjihadan o'z – o'zini tarbiyalash, ya'ni o'qituvchining o'zida mohir pedagogliknshaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi deb aytish mumkin.

Sinf shaxsning o'z- o'zini bilish va o'z-o'zini tarbiyalash labaratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning Yangi usullari tekshirib ko'riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin. SHu narsa muhimki, sinf qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini ishlash malakalarni egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Barcha hollarda ham individual, ham sinfiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalri shakllanishining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur.

ya'ni inson asab tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. Tarbiyaviy faoliyatning samarali bo'lishi uchun sinf rahbarida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim

- tashkiliy – sinf rahbarining o'quvchilarni jipslashtirish, ularni band qilish, vazifalar bo'lib berish, ishni rejalashtirish, qilingan ishlarni jamlash mahoratiga namoyon bo'ladi;
- didaktiga oid – o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, xissiy istaklarni rag'batlantirish, o'quv bilimni orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo'ladi;
- pertseptiv – tarbiyalanuvchilarning ma'naviy dunyosiga singib, ularning emotsional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo'ladi;
- suggestiv – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi;
- kelajakni ko'ra bilish - o'z harakatlarning oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchilarda qanday fazilatlarini

ro'yobga chiqarish lozimligini oldindan ayta olish mahoratida namoyon bo'ladi;

- Tadqiqiy - pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni o'rganish va obxektiv baholash mahoratida namoyon bo'ladi. Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ (kattalar bilan ham, kichiklar bilan ham tez aloqa o'rnatish) qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan fakt va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berish sababiga qarab hukm ham chiqarishi pedagogik optimizmga, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lish kerak. Sinf rahbarining eng muhim fazilati – odamlar bilan tezda til topa olishi, ko'pchilikka o'shila bilish, ulfatjonlik, dilkashlik bo'lib, bu undagi muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. CHunki unga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to'g'ri keladi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yaratish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo'luvchi sinf rahbarining insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Sinf rahbari uchun juda muhim xislat – insonparvarlik, ya'ni o'sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabat qilish lozim. Insoniy munosabatla o'quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning fikriga quloq solmoq, uning o'quvchilik faoliyatiga yuksak talabchanlikdan iborat. Sinf rahbari doimo faol, ijodkor shaxsdir. U o'quvchilarning kundalik hayotini uyushtiruvchi hamdir. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish, ularni o'zi bilan yetaklash faqat yuksak irodali insonning qo'lidan keladi. Auditoriya, o'quvchilar jamoasi kabi murakkab organizmlarga pedagogik rahbarlik qilishi sinf rahbaridan topqir, zehni o'tkir, har qanday vaziyatni mustaqil yechishga doim tayyor bo'lishligini talab qiladi. Unga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri – sabr-toqat va dadillikdir. O'qituvchining birdan sarosimaga tushgani, o'z nochorligini o'quvchilar sezmasligi lozim. SHuni hamisha esda tutish kerakki, sinf rahbari o'z harakati va axloqini nazorat qilish, hech qachon arzimagan narsalarga asabiylashmasligi kerak. Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning birinchi sharti - bu sinf rahbarining talabchanligi. Dastlab talabni u o'ziga qo'yishi kerak, chunki o'zingda bo'lmaganni o'zgan talab qila olmasan. Talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo'lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda yuz berib turadigan keskinliklarni bartaraf etish uchun tarbiyachiga hazil-mutoyiba tuyg'usi yordam beradi. Uning ko'lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do'stona piching – ijobiy emotsional holat yaratishga imkon berib, o'quvchilarni o'ziga jalb qildiradi.

Xulosa.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart.

Oliyjanoblik qalbning o'ziga xos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Pedagogning o'quvchilarga bo'lgan nisbatan bo'lgan munosabati mehr, hayrihohlik va yordamida iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilar oldgiga qo'yi o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan xulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo'l qo'yadilar. Rasmiy hujjatlarga sinf rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham biz quyida sinf rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko'rsatishni zarur deb bildik. Sinf rahbarining vazifalari:

1. Anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganish.
2. O'quvchilarning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.
3. O'quvchilarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.
4. Sinfda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlis o'tkazish
5. Darsda o'quvchilarning davomatini ta'minlash, sinfda va maktabda navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, xonadagi o'quv asboblarni saqlashga o'rtgatis, o'quvchilarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o'tkazish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: 2014 – yil.
2. Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. «Pedagogika». T.:, 2000.
3. Ismailova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.T.:2006.
4. Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.
5. Ortiqov N.O., Jo'rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi. T.:“O'qituvchi”, 1989.
6. G'ulomjonova, D., & Artikova, N. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 112-117.
7. Shuxratovna, A. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 1592-1594.
8. SHuxratovna, A. N., & Muxiddinovna, I. S. (2023). INGLIZ TILI DARSLARIDA TOVUSHLARNI TO'G'RI TALAFFUZ QILISHNI O'RGATISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 305-309.
9. Shukhratovna, A. N., & Irodakhon, K. (2023). English Teaching Elements in Primary School Using Clil Technology. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 790-793.
10. Shuxratovna, A. N. Abduvosiyeva Zuhra Isroil qizi.(2023). XORIJIY TILLARNI O'QITISH VA UNING XUSUSIYATLARI. *IQRO JURNALI*, 2(1), 331-340.
11. Artikova, N., & Nurmatova, S. (2023). PROJECT OF TEACHING THE WORLD OF ANIMALS IN ENGLISH CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(5), 1136-1139.
12. Shukhratovna, A. N. (2023). THE INSTRUCTIVE LIFE PATHS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR FOR ALL. *PEDAGOG*, 6(2), 567-569.
13. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 91-98.
14. qizi, D. G. B. ., Darxonova Gulmira Burxon qizi, Yakubova Intizor Zafarovna, & Shuxratovna, A. N. . (2024). O'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O'RNI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 125–128. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/501>
15. Isroilova Sevinch Aqilbek qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLIISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. *Scientific Impulse*, 2(19), 108–110. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15153>
16. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(3), 116-118.
17. Raximboyeva Gulsanam Gulmirza Qizi & Artikova Nargiz Shuxratovna (2024). SU'NIY INTELLEKT: FOYDALIMI YOKI ZARARLI ?. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 18), 691-693. doi: 10.5281/zenodo.10806277